

Muminova Muxlisa Latif qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, ekologiya va huquq fakulteti, yurisprudensiya (yer munosabatlari) yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +9989943037737

Email: muxlisa_muminova04@mail.ru

MEN SEVGAN SHOIRNING HAYOT VA IJOD YO’LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada, shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she’riyati, unvonlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi, Abdulla Oripov, adabiyot, san’at, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Oliy Majlisi senati, O’zbekiston Respublikasi Madhiyasi, “O’zbekiston Qahramoni”.

Abdulla Oripov - o’zbek shoiri va jamoat arbobi. Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o’zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini nomoyon etadi. Uning she’rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi. Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tavallud topgan. O’rta maktabni 1958-yili oltin medal bilan tamomlagandan keyin, hozirgi O’zbekiston Milliy universitetning journalistika fakultetida 1958–1963-yillarda o‘qidi, “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodim, “Yosh gvardiya” va G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotlarida muharrir, “Yosh gvardiya” dramatik teatridda badiiy bo‘lim mudiri, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, katta adabiy maslahatchi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o‘rindoshlik bo‘yicha o‘qituvchi va bir qancha vazifalarida ishladi. 2009 yildan boshlab esa O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Faxriy raisi. U 1990 yilda O’zbekiston Oliy Kengashining, 1995 yilda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati etib saylangan. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati a’zosi (2005–2010). Abdulla Oripov Kaliforniya (AQSH) fan, ta’lim, sanoat va san’at xalqaro akademiyasining a’zosi ham bo’lgan.

Dastlabki she’ri 1957 yilda, o’zbek she’riyatida o‘ziga xos voqeа bo‘lgan “Mitti yulduz” nomli birinchi kitobi esa 1965 yilda nashr etildi. Shundan keyin “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O’zbekiston” (1972), “Hayrat” (1974), “Yurtim shamoli” (1976), kabi oltmishga yaqin to‘plamlari chop etildi. 2000–2013 yillarda “Tanlangan asarlar”ning yetti jildligi bosilib chiqdi.

Abdulla Oripovning dostonlari, she’rlari ko‘plab xorij tillariga tarjima qilindi. U buyuk italyan shoiri Dante Aligerining shoh asari “Illohiy komediya”ning “Do‘zax” qismini to‘lig‘icha va “A’rof” qismidan to‘qqiz qo’shiqni mahorat bilan o’zbek tiliga o‘girdi (1975,2005). Yenye Xelton, A. Pushkin, N. Nekrasov, L. Ukrainka, T. Shevchenko, R. Hamzatov, Q. Quliyev, Maxsatiy Ganjaviy, Yegishe Charens, H. Bachchan, H. Merilaas, Xalil Rizo va boshqa qardosh shoirlar she’rlarini tarjima qildi.

Shoir ijodi mustaqillik yillarida nihoyatda tuyg‘ularga boy, fayzli va sermahsul bo‘ldi. “Haj daftari” (1992) turkumiga kirgan she’rlarida shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatda ham ma’lum va mashhurdir. Xususan, “Sohibqiron” (1996) she’riy dramasi va “Istiqlol manzaralari” (2011) dostoni shoirga katta shuhrat keltirdi.

O’zbek xalqining milliy tiklanish, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati alohida o’rin tutadi. Abdulla Oripov O’zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyасining

matni muallifi ekani bilan ham xotiralarda saqlanib qoladi. Abdulla Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezleri O'zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko'plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi hammualifidir. U 1994-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan, Millat ma'naviyati va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun shoir Abdulla Oripov ijodkorlar orasida birinchi bo'lib, 1998-yilda „O'zbekiston Qahramoni“ degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

2007-yil Oripov Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi uchun oltin medalni qo'lga kiritdi.

2015-yil Italiya yulduzi xalqaro sharafli ordeni bilan taqdirlangan. Faxriy mukofot shoirga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning taklifiga binoan topshirilgan.

O'zbekiston xalq shoiri A. Oripov hayotdan 2016-yil 5-noyabr kuni ko'z yumdi. Uning yoshi 75 da edi. Shoир Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan.

MUSIQIY MISRALAR SADOSI

Abdulla Oripov she'riyati musiqaviy she'riyatdir. Uning har bir misrasida, har bir bandida alohida takrorlanmas ohang bor. Mana, bir vazmin, bir o'ktam ohangda otashin misralar yangramoqda.

Hamin sarhadlardan g'amgin sas kelur,

Malomat toshlari basma - bas kelur.

Odamni mahv etar farzandi odam,

Odam erur ammo tamoshabin ham.

Yetim go'daklarning ko'zdagi yoshi

Bu – jumla jahonga malomat toshi.

Yuqoridagi misralarda har bir so'z bittadan tosh bo'lib go'yo alohida-alohida ritm bilan naq sening ko'ksingga tegadi, ruhingga g'alayon soladi. Bu haqda shoirning o'zi ham she'r boshidayoq aytib qo'ygan:

Idroking mavjiga tekkani zamon

U mudroq ruhingga solur g'alayon.

Abdulla Oripovning har bir she'rining o'z ohangi bor, uni sira ham boshqa ohangda aytib bo'lmaydi. Shoirning bundan yigirma bir yil muqaddam (1963) yozgan "Sen bag'orni sog'inmadingmi?" deb nomlangan she'r sarlavhasining o'ziyoq allaqanday musiqiy sadolarni yodimizga soladi. U sadolar ham shunday sadolarki, bahorning nimpushti g'unchalari, chuchmomalar gulbarglarining qatlari ochilishidan paydo bo'lgan, faqat qalb qulog'i tinglashi mumkin bo'lgan sadolardir:

Uzoqlardan zalvorli tog‘lar

Xayolimni keldilar bosib.

O‘tdi qancha intizor chog‘lar

Vasling menga bo‘lmadi nasib.

Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,

Sen bahorni sog‘inmadingmi?.

Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” she’ri mening nazarimda ham zukko rassom mo‘yqalami bilan chizilgan tengsiz suratga, ham sohir qalbdi bastakor yaratgan kuya o‘xshaydi. Shoir vatan shamolining zangori suratini chizar ekan, avval bahor yellarining atlas ko‘ylaklar etagini taragandagi mayin saslari eshitilganday bo‘ladi. So‘ng esa goh shodlik, goh qayg‘u nafasini olib kelgan dolg‘ali shamollar ovozini tinglaymiz. Shoirning maqsadi faqatgina Vatan shamolining suratini chizish emas, u olamdagи “qancha bo‘stonlarnisovurgan” davronlar bo‘ronidan so‘ylab, “qayg‘ulardan holiy” yurti shamolini kuylamoqdir. Yashil bog‘lar quchog‘ida sayragan turfa qushlar orasida bulbul ovozi yagona bo‘lganidek, shoir Abdullaning ovozi ham tanhodir.

MEHRGA MUHTOJ QALBLAR KUYCHISI

Abdulla Oripov she’rlarining eng katta mavzularidan biri, Mayoqub Qo‘shtonov yozganidek, “katta harf bilan yozilishi kerak bo‘lgan insoniy mehrdir”[38]. Shoirning “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” nomli she’rida ana shu mehrning tirik haykali farrosh kampir obrazini yaratadi. Beshta qit’adan tanlab olingen, olamdagи barcha ilmlarni o‘zida mujassam etgan olimlar yecholmagan jumboqni farrosh kampir bir zumda hal qiladi-ko‘yadi. Kampir samoviy mehmonga somon yo‘lini ham, alfa-yu betalarni ham ko‘rsatib o‘tirmaydi. Balki o‘zining onalik qalbidagi samimiyl mehrini izhor etadi. U samoviy mehmonning “sap-sariq rangi zardini” ko‘rib, shunday deydi:

Voy bechora bolagina,

Dard zaptiga olibdi-ku.

Holdan toyib, boshqa ko‘zi

Yumilib ham qopti-ku.

Shunday qilib farrosh kampir “rangini ko‘r somon deysan, suvdanmikan yo o‘tdan” deya girditton bo‘ladi. Uning tikanakday tikka o‘sgan sochginasini silab” unga ichgani suv ham tutadi. Shu payt mo‘jiza ro‘y beradi. Kampirning mehribonligidan samoviy mehmonning “bittagina ko‘ziga duvva-duvva yosh” keladi. Bu she’r o‘zining afsonaviy obrazlari bilan, ehtimol, minglab yillar insoniyatga mehrdan saboq berar. Axir, mehr zamingagina emas, insongagina emas, balki samoga ham zarurdir. Agar hozirgi kunimizda insoniyat samoga mehrini emas, qahrini armug‘on etayotgani, imperialistik doiralar kosmosdan harbiy maqsadlarda foydalanishga harakat qilayotganini hisobga olsak, shoirning mazkur she’ri naqadar ulkan ijtimoiy xarakterga kasb etishini yanada yaqqolroq his etamiz. Afsuski, taraqqiyot behad va benihoyat tez bo‘lgan bizning asrimizda o‘sha “katta harf bilan yozilishi kerak bo‘lgan mehr”ning bozori tobora kasod bo‘lib

borayotgani hech kimga sir emas. Albatta, bu hol birinchi navbatda shoir qalbini bezovta qilishi ham shubhasizdir.

Shoirning keyingi paytlarda yozgan she’rlarida mehrga tashnalik hissi yanada o’tliroq, yanada jozibaliroq kuylanadi. Uning “Qirq yosh” nomli she’rida mehr haqidagi, mehrga tashnalik haqidagi quyidagi misralarni o’qigan she’rxon qalbi larzaga tushadi:

Kim alam chekmabdi umrida bir bor,

U meni anglamas, anglamas zinhor.

Kim haqqa tashnadir, kim mehrga zor,

Men unga umrimni etgumdir fido.

Mehr so‘zi qadimda quyosh ma’nosini bildirar ekan. Mehrga muhtoj qalblarning mumtoz kuychisi bo‘lgan Abdulla Oripov olamda mehru muhabbatning quyosh nurlari kabi serob bo‘lishini tilaydi.

TRADITSIYADAN – NOVATORLIKKA

Abdulla Oripov ijodida o‘zbek she’riyatidagi eng ezgu traditsiyalar izchil ravishda davom ettirilgan. Shoir o‘z she’rlarida Alisher navoiy kuylagan insonparvarlik, ezgullik, yaxshilik, razolatga ayovsiz nafrat, insoniy sevgi va muhabbat g‘oyalarini o‘ziga xos otashin misralarda talqin etadi, o‘sha g‘oyalarni mehru muhabbat bilan davom ettiradi. U G‘afur G‘ulom va Hamid olimjon kabi shoirlar ijodidagi vatanparvarlik motivlarini yanada jarangdor pardalarda kuylaydi.

Alisher Navoiy:

Odamiy ersang demagil odami

Oningkim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami –

deya xalq g‘amini yemagan insonlar odam emasligini aytsa, Abdulla Oripov undaylarni “temir odam” deydi:

Ustoz, qalbi yo‘qdir uning ham, hayhot,

Na nafrat, na ishqni tanlamas u ham,

Uning ham ko‘zida chaqnamas hayot,

Munis boqishlarni anglamas u ham.

Klassik shoirlar ijodida olam go‘zalliklari inson chehrasiga nisbat berilib kuylangan. Biz Alisher navoiy, lutfiy, Fuzuliy kabi ulug‘ shoirlarning har bir misrasida gullar, chechaklar, yaproqlar, mayin shabbodalar, quyoshning ipak shu'lalari... qo‘ying-chi, bu nurli olamning barcha go‘zalliklari yorning go‘zalligiga nisbat berilib, bu yorug‘ dunyoga va olamning gultoji bo‘lmish insonga muhabbat ifoda etilgan. Abdulla Oripovning ham har bir misrasida o‘sha gulu chechaklar, kuzning za’far yaproqlaridan tortib, yomg‘irlarning ma’yus shivirlashlarigacha tasvirlangan.

Lekin bu tasvirlar inson qalbining turli manzaralarini, inson ruhiyatining rangin suratlarini akslantirish uchun xizmat qiladi.

Do'stim, tingla...yaproqchalarning

Shivirlashi eshitilmoxda...

...Yuragim ham daraxtzor kabi

Nimanidir olqishlamoqda.

Shoirning yuqoridagi kabi misralarida inson ruhiyatidagi tug'yonli lahzalar suratini tabiat manzaralari suratiorqali tasvirlaydi.

Hamid Olimjon, G'afur G'ulom kabi shoirlar ijodida Vatan madhi tantanavor ohanglarda jaranglasa, Abdulla Oripov Vatanni ezgu bir dard bilan sevadi. Uni Ulug'bekning boshini kesgan, Boburning sarsonu sargardon qilgan, Chingizzonlar zulmidan qon-qaqshagan, lekin bosh egmagan xalqni oppoq armon bilan sharaflaydi. Abdulla Oripov dono xalqimiz yaratgan maqol va matallardan, iboralardan juda oqilona va san'atkorlik bilan foydalanadiki, natijada shoir tilga olgan maqollar qayta boshdan she'riy umrini boshlaydi. Ayniqsa, shoir o'z to'rtliklarida xalq maqollaridan samarali foydalangan. Uning "Men anglab yetgan falsafa", "Tingla, bu abadiy sado bo'ladi", "Deydilar, it hurar o'tadi karvon", "Bulbul o'gay erur zog'lar orasida kabi to'rtliklarida xalq maqollaridan zargarona foydalanilgan". Shoир bu maqollarni shunchaki o'z fikrini isbotlash uchungina keltirmay, balki bu maqollarni yangi qirralar bilan, o'zgacha jilolar bilan boyitgani uning novatorligidir.

Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,

Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.

Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo

Molim yomon degan biror kimsani.

Shoir bu to'rtligiga "Men anglab yetgan falsafa" deb sarlavha qo'yibdi. Ha, shoир anglab yetgan falsafa bu tiriklik bozorining mangu haqiqat bo'lgan falsafasidir.

SHOIR BADIYATI HAQQONIYLIKDIR

Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, uning yana bir xisslati haqida to'xtalib o'tmog'imiz joizdir. Bu xislat shoir she'rlaridagi badiyyatdir.

"Lirk poeziyani faqat muzika bilan solishtirish mumkin," — degan edi V.G. Belinskiy. Yana u so'z ma'nosi yo'qolib, his va musiqiy sadoga aylanishi haqida ham ajoyib fikr aytgan. Poeziyani "his va musiqiy sadoga" aylantiruvchi omil, bu- she'rning badiyyatidir.

Badiyyat – bu, go'zallikdir, tuyg'ularga yo'g'rilgan she'riy tafakkur go'zalligidir. "Go'zallikning o'zi muhim g'oya. Bu go'zallikni bo'lib-bo'lib tahlil etish daryodagi erkin baliqni tutib, pichoqda kesib, a'zolarini tekshirib, yana suvgaga qo'yib yuborish bilan teng. Baliq faqat suvdagi yayragandagina odamning havasini keltiradi. To'g'ri, suvdagi baliqni tamoshlo qilishdan ko'ra uni yeishni afzal ko'radigan odamlar ham oz emas. Bunday hissiz odamlar faqat san'at

go‘zalligini emas, hayot go‘zalligini ham ko‘rmaydilar. To‘g‘risi, kun kechiradilar”, — deb yozadi taniqli munaqqid Mahkam Mahmudov.

Badiiyat, Mahkam Mahmudov iboralari bilan aytganda, “inson qalbidagi manzaralarning cheksiz bo‘yog‘ini his etmoqdir”. Shoir so‘zdan tuyg‘u yaratadi, tuyg‘ular orqali, tuyg‘ular bo‘yog‘i bilan esa inson qalbining manzaralarini chizib beradi. Mahkam Mahmudov yozadi: “So‘zning buyuk qudratini zarracha inkor etmaganimiz holda, shuni aytishimiz kerakki, tuyg‘u agar daryo bo‘lsa, so‘z uning qirg‘og‘i, tuyg‘u agar parivash qiz bo‘lsa, so‘z uning surati, tuyg‘u agar gulzor bo‘lsa, so‘z- rassomning bo‘yog‘i. Yong‘oqdan murod uning mag‘zi, qig‘oqdan murod uning suvi. Suratdan murod uning sohibasi, bo‘yoqlardan murod gulzorning o‘zi”[45].

Munaqqid fikrlaridan anglashiladiki, she’riyatning ham asl murodi inson tuyg‘ulariga ta’sir etmoqdir. Lekin she’riyatda badiiylik bo‘lsagina inson tuyg‘ulariga ta’sir etadi. Yolg‘ir fikrning o‘zi inson qalbiga, uning tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi. She’riyat esa tuyg‘ularga ta’sir eta olish qudrati bilan boshqa san’atlardan farq etadi. Filologiya fanlari kandidati, dots.nt Muhammadjon Madg‘oziyev “Badiiylik nima, menga tushuntirib bersangiz”, — deb xat yozgan havaskorlarga shunday javob yozibdilar: “ So‘rab ko‘ring-chi, asalari asal yig‘ishni kimdan o‘rgangan ekan, gullar rango rang ochilishni va muattar bo‘y sochish haqida kimdan maslahat olgan ekan? Badiiylik ham xuddi shuning kabi hayotiylik va haqqoniyligidadir”

Abdulla Oripov she’riyatining qudrati ham uning yuksak darajadagi badiyligidadir. Lekin uning she’rlarida sun’iy badiiylik, zo‘rma-zo‘raki o‘xshatishlar, mantiqqa zid bo‘lgan jonlantirishlar orqali badiiyat yaratilmaydi. Uning har bir iborasi, har bir tashbehi ayni haqiqatdir. Mana, uning “Bahor” she’rida shunday misralar bor:

Qaydadir shoira kuylaydi behol,

Mening ham oy kabi ko‘nglim yarimta.

“Yarimta ko‘ngil” va “yarim oy” –naqadar haqqoniy va go‘zal tashbeh. Agar yarimta ko‘ngilga yarim oy o‘xshatilmaganida, shunchaki fikrning o‘zi, ya’ni darak gap bo‘lib qolar edi. “Yarimta oy” bu – haqqoniy badiiyat va shoir she’riga mangulik bag‘ishlagan omildir.

Shoirning ko‘pdan ma’lum va mashhur she’rlaridan biri “Nay” she’ridir. Undagi badiiylik hayotning, haqiqatning o‘zidir. Qamishning “adirlarda durkun yashagani” ham, odamlar uning tanasini pichoq bilan kesib olganlari ham, ko‘zi va bag‘rini o‘yib olganlari-yu, bu ham yetmagandek, bo‘g‘ziga lablarini qo‘yib puflaganlari ham haqiqatdir. Alamiga chiday olmay sho‘rlikning nola chekib yuborgani, odamlar esa qamishni yig‘latib qo‘yib, rohat qilganlari ham rost.

Bu tashqi ko‘rinishdagi haqiqatdan tashqari majoziy haqiqat ham bor. Bu ham bo‘lsa, inson yurak-bag‘ri alamlardan sitilib, chok-chok bo‘lganidan qamishdan nay yasab, o‘z dardlarini kuylashga ehtiyoj sezganidir. Haqqoniy va hayotiy badiiyatning qudrati ana shundadir. Abdulla Oripov she’riyatining qalblarga yaqin va barchaga sevimli qilgan xususiyatlaridan biri ana shundadir.

XULOSA

Abdulla Oripov she’riyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e’tirof etganidek, o‘zbek poeziyasida muhim o‘ringa, katta salmoqqa ega bo‘lgan she’riyatdir.

Uning she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq diliidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'yash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi – shoir she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlardandir.

Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yanglig' saxovatlidir. Zamin bag'rida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar o'sadi. Shu kabi shoirningqalbi ham o'z tuyg'ularidan turfa xil gullar – she'riyat gullarini armug'on etadi.

Chindan ham Abdulla Oripovning she'rlari mohiyat e'tibori bilan voqe bo'lgan she'rlardir. Biz uchun, "shoir bir yurt" bo'lgan O'zbekiston uchun shoir ham, uning she'rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla>
3. ziyonet.uz
4. Абдулла Орипов. Юзма-юз. — Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti. Toшkent, 1978.
5. Абдулла Орипов. Йиллар armoni. — Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti. Toшkent, 1984.
6. Абдулла Орипов. Нажот қалъаси. — Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti. Toшkent, 1980.
7. Абдулла орипов. Сурат ва сийрат. — “Ёш гвардия” nashriёti, Toшkent, 1981.
8. Абдулла Орипов. Митти юлдуз. — Toшkent, 1965.
9. Абдулла Орипов. Сурат ва сийрат. — “Ёш гвардия” nashriёti, Toшkent, 1981.
10. Абдулла Орипов. Кўзларим йўлингда. — Toшkent, 1966.
11. Абдулла Орипов. Онажон. — Toшkent, 1969.
12. Абдулла Орипов. Руҳим. — Toшkent, 1971.
13. Абдулла Орипов. Ҳайрат. — Toшkent, 1974.
14. Белинский В.Г. Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши. — Toшkent, 1975.